

**MAKTABLARDAGI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI
BARTARAF ETISH YO`LLARI****Radjapova Munajat***Samarqand viloyati Paxtachi tumani 37-sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy-psixologik muammolar, giperaktiv bolalar bilan ishlash, ota-onalarga tavsiyalar, chapaqaylik haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-psixologik muammolar, giperaktivlik, agressiv, chapaqaylik, krizis, korreksiya, psixika, verbal, noverbal, obrazli, mantiqiy, qobiliyat.

Bugungi kunda yashash tarzimiz, davrning shiddat bilan rivojlanishi va jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlar nafaqat kattalar, balki bolalar oldiga ham yuqori talablarni qo'ymoqda. Bunday murakkab ijtimoiy sharoitda umumta'lim maktablarining vazifasi har bir bolaga to'g'ri yo'lni tanlashga yordam berishdan iborat. Maktab oiladan keyingi eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanib, u ijobiy, ijtimoiy xulq qoidalarini o'quvchilar ongiga singdirishi, bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga imkoniyat tug'dirishi kerak. Bu vazifalar tarbiyasida muammosi bor bolalarning ta'lim va tarbiya olishi jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki bu bolalar o'z ijtimoiy vazifalarini bajarmaydigan oilalarda yashaydilar. Bugungi kunda umumta'lim maktablaridagi ijtimoiy-psixologik muammolardan eng asosiysi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning oldini olish masalasidir. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning oldini olishda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim: • voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar sodir etilishga imkon beradigan sabablarni aniqlash, yakka tartibdagi profilaktika ishlari; • ijtimoiy jihatdan havfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar sodir etishining oldini olish; Bu vazifalarni amalga oshirishda maktab ma'muriyati, maktab o'qituvchilari, o'quvchilar, ota-onalar, turli jamoatchilik tashkiloti vakillari, jumladan mahalla qo'mitalari, huquq targ'ibot tashkilotlari ishtirok etadi. O'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkillashtirishda ularni keng ko'lamda sport bilan shug'ullanish, badiiy ijodiyot, to'garaklarga jalb etish – bolaning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish, kitob o'qishga o'rgatish tarbiyaviy faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biridir. Huquqiy tarbiya berish. Voyaga yetmaganlar va ota-onalarning huquqiy masalalarga alohida e'tibor qaratishi bolalarda o'z hatti-harakati uchun mas'ullikni kuchaytiradi. Amaliyotdan kelib chiqib, shuni alohida ta'kidlash

joizki, uzoq vaqt davomida surunkali dars qoldiruvchi va keyinchalik o`qishdan orqada qolib ketishga moyilligi bor oila farzandlari quyidagi shartli guruhlariga taalluqlidir.

1. Nochor va kam ta'minlangan oila farzandlari. Bunday oilalarda ota-onalar aniq ish-joyiga ega emas, qunlik ish haqi hisobiga ishlaydilar. O`tmishda sudlanib chiqqan, ichkilikka berilganlar. Bunday oilalar farzandlarining o`qishi va tarbiyasi borasidagi qiyinchiliklar ota-onalarning maktab bilan muloqotga layoqatsizligi va hohishi yo`qligi sababli kuchayib boradi.

2. To`liq bo`lmagan oila farzandlari. Bunday oilalarda oilaning hayot tarzini bir maromda saqlash, shuningdek, farzand tarbiyasi vazifalari birgina inson (ko`proq ona) zimmasiga tushadi. Farzandining vaqtini qanday o`tkazilishini nazorat qilish, o`qish jarayonida ko`maklashishi kerak. Ota-onaning layoqati ko`p hollarda cheklangan bo`ladi, sababi vaqtning yetishmasligi, shaxsiy hayotdagi omadsizlik, oiladagi og`ir ruhiy holatni barqaror emasligi farzandlarga o`z ta'sirini o`tkazadi.

3. Qarindoshlar qaramog`ida bo`lgan bolalar. Ota-onalar u yoki bu sabalarga ko`ra (ko`p bolali oila, ota-onalari safarda bo`lganda) farzandi tarbiyasini yaqin qarindoshlar zimmasiga yuklaydilar.

4. Ota-onalari ishlash maqsadida chet elga ketgan oila farzandlari. Bunday holatlarda bolalar ota-ona talabiga ko`ra kattalar o`rnida qolib, uyni qo`riqlaydilar, uy ro`zg`or ishlarini yuritadilar va uka-singillariga qarab turadilar.

5. Notinch oila farzandlari Bunday oilalarda doimiy ravishda janjallar bo`lishi natijasida bola uydan bezib ko`chaga chiqib ketishi, dadasining ichkilik ichib janjal qilishidan, onasini taxqirlashidan bezib turli noxush holatlarni sodir etishi kuzatilgan.

Ta'lim va tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko`rsatayotgan eng dolzarb omillardan biri – bu o`quvchilarni o`ziga tortuvchi va ularga kuchli ta'sir etuvchi turli "jalb etuvchi" joylar – internet-kafe va kompyuter o`yinlari zallari. Bu maskanlar nafaqat kechqurun, balki kunduzi ham ishlaydi. Dars vaqtida kompyuter o`yini zallariga borish dars qoldirishga olib kelishi mumkin, bunday bolalarni e'tiborga olish kerak. Ushbu tavsiyalarga rioya qilinganda, qanday natijalarga erishish mumkin?

1. Sababsiz dars qoldiruvchi o`quvchilar sonining kamayishi.

2. Ta'lim muassasalarining huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha olib boradigan ishlari samaradorligini oshishi.

3. Bilimida bo`shliqlar bor o`quvchilar sonining kamayishi.

4. Voyaga yetmaganlarning bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish.

5. Huquqbuzarlik, nazoratsizlik, giyohvandlik, va boshqa salbiy xulqqa moyilligi bor voyaga yetmagan yoshlar sonining kamayishi. Albatta, huquqbuzarliklarni oldini olish, dars qoldirish va o`zlashtirmaslik kabi muhim vazifalarni hal etishda maktab psixologi, sinf rahbari va ota-onalarning birgalikdagi harakati katta rol o`ynaydi. Bunday o`zaro harakat natijasi o`smirni hayotda o`z o`rniga

ega bo'lishiga, jamiyatga kerakli inson bo'lishida, egri yo'ldan qaytib o'z hayot yo'lini tanlashiga yordam beradi. Hozirda maktab o'quvchisining psixologga murojlat qilishiga to'sqinlik qiluvchi bir necha omillar bor: - psixolog faoliyati bilan tanish emasligi; - maktab psixologi sir saqlashiga ishonmaslik, muammolaridan o'qituvchi va ota-onasi xabar topishidan xavotir olish; - tengqurlari "jinni" deb o'ylashidan qo'rquv va hokazo. Muammolardan qiynalgan va psixolog yordamini ololmagan o'smir yo konstruktiv (bunyodkor) yo'ldan borishi, yo destruktiv (vayronkor) yo'lga kirishi mumkin. Konstruktiv yo'lni tanlaydigan o'smirlar o'zini tahlil qilishga moyil bo'ladi, kitoblardan, filmlardan yechim izlaydi, fan yoki sportga o'zini baxshida qiladi. Ammo barcha muammolariga har doim ham ijobiy yechim topolmaydi. Destruktiv yo'ldagi o'smir zararli odatlarga beriladi, ichki kurashini tashqariga ko'chiradi — yaqinlari bilan ziddiyatlarga boradi, ba'zi hollarda suiqasdga qo'l urishi ham mumkin. Odatda, maktabda o'tiladigan fanlar bilimni oshirishga qaratilgan bo'ladi. Psixologiya fanining joriy etilishi nafaqat o'smirning psixika haqidagi bilimlarini kengaytirishi, balki o'z-o'ziga yordam vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maktab psixologining hamma o'quvchi bilan ishlashga vaqti yetmasligi, asosan, muammosi og'ir o'quvchilar bilangina ishlashini hisobga olsak, psixologiya fani o'tilishi boshqa o'quvchilarning psixologik bilimlarga bo'lgan chanqog'ini qondiradi. Psixologiya fanining maktabda 5-sinfdan 11-sinfgacha o'tilishi, darslar o'quvchining yoshi hamda idrok qila olish imkoniyatini hisobga olib tashkillashtirilishi kerak. Bitta mavzu faqat bitta sinfda o'tilmasligi, soddadan murakkabga qarab rivojlantirilgan holda bir necha sinflarda o'tilishi ham mumkin. Fanni "Umumiy psixologiya", "O'smirlik davri psixologiyasi", "Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi", "Oila psixologiyasi", "Psixogigiyena" singari tarmoqlarga ajratgan holda o'tish ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Asab va ruhiyat" "Zaminnashr" nashriyoti 2018
2. "Tibbiyot psixologiyasi" Toshkent 2010
3. B.N.Sirliyev, N.Ismoilova, I.M.Xakimova "Stress va agressiya" Toshkent 2014